# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 16-iyul, № 142 (8765) Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## OLIY DARAJADAGI KELISHUVLARNING AMALGA OSHIRILISHI MUHOKAMA QILINDI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-iyul kuni Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim bilan telefon orqali muloqot qildi.**

Ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari, shu jumladan, Malayziya Bosh vazirining joriy yil may oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarning bajarilishi ko'rib chiqildi.

Parlamentlararo, hukumatlararo, ishbilarmonlik aloqalari sezilarli faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. 29-may kuni Putrajaya shahrida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishi samarali o'tkazildi. O'zbekiston — Malayziya ishbilarmonlar kengashi tuzildi.

Sanoat, "yashil" energetika, neft-kimyo, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda yetakchi kompaniyalarning kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Gumanitar almashinuv va ziyorat turizmi bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shuningdek, bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi ko'rib chiqildi.

## OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-iyul kuni davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlari, oliy ta'lim tizimida sifatni oshirish va xalqaro o'quv dasturlarini tatbiq etishga oid hisobot bilan tanishdi.**

Shu kunlarda oliy ta'lim muassasalariga qabul imtihonlari bo'lib o'tmoqda. Bu yil unda 805 ming nafar abituriyent ishtirok etmoqda.

Mutasaddilar 2024/2025 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga kadrlar tayyorlash davlat buyurtmasi rejasi bo'yicha axborot berdi. Qayd etilganidek, bu yil bakalavriatda ham, magistraturada ham muhandislik, qurilish, tabiiy fanlar, matematika, axborot texnologiyalari yo'nalishlariga kvotalar soni oshirilmoqda. To'lov-kontrakt asosida qabul davlat va nodavlat muassasalarida bir xil shartlar asosida, oliygohning ilmiy salohiyati va moddiy-texnika bazasiga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari oliy ta'lim muassasalariga umumiy davlat buyurtmasini tasdiqlash, bunda mamlakatimiz rivoji va mehnat bozori talablariga e'tibor qaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Yurtimizda muhandis kadrlarga talab yuqori. 20-iyun kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida bu sohadagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan edi.

Masalan, hozir Surxondaryoda Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti faoliyat yuritmoqda. Ularni yiriklashtirish orqali Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Bu samarali boshqaruv tizimini joriy etish, takrorlanuvchi fakultet va kafedralarni qisqartirish, ayrim shtat birliklarini maqbullashtirish imkonini beradi.

Yangi universitetda ilg'or muhandislik maktabi tashkil etiladi. Unga bilimi yuqori talabalar tanlov asosida olinib, amaliyotga yo'naltirilgan maxsus ta'lim dasturlari asosida o'qitiladi. Bu maktabning yo'nalishlariga mos sanoat hamkorlari belgilanib, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etiladi. Ularning takliflari asosida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari yo'lga qo'yiladi.

Universitetning boshqaruv va o'qituvchilik lavozimlariga xorijiy tajribaga ega, ilmiy va amaliy malakasi yuqori mutaxassislarni jalb etish, ularning ish samarasini xalqaro standartlar asosida baholash vazifalari qo'yildi.

Davlatimiz rahbari tarmoq, korxona va oliy ta'lim muassasasi uzviyligini mustahkamlash, o'z sohasida ilg'or, raqobatdosh mutaxassislar tayyorlash zarurligini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil sentabr oyida AQShga tashrifi chog'ida ta'lim sohasi bo'yicha ham kelishuvlarga erishilgan edi. Shunga muvofiq Toshkent shahrida Amerika texnologiyalar universiteti ochilishi kutilmoqda.

Uning faoliyati 2024/2025 o'quv yilidan boshlanadi. Universitetda muhandislik, arxitektura va dizayn, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va moliya, xalqaro munosabatlar sohalari uchun kadrlar tayyorlanadi. Bitiruvchilarga Arizona davlat universiteti yoki AQShda tan olinadigan hamkor xorijiy universitetning diplomi beriladi.

Bu boradagi tashkiliy chora-tadbirlar va kelgusi maqsadlar belgilab olindi.

**O'zA.**

## O'ZBEKISTON MARKAZIY OSIYONING AVTOMOBIL SANOATI MARKAZIGA AYLANMOQDA





**Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar**

*Bugungi kunda O'zbekistonda har 100 ta oilaga o'rtacha 57 ta yengil avtomobil to'g'ri keladi. Buni Statistika agentligining tanlanma kuzatuvlari natijasi ham tasdiqlaydi. Unda keltirilishicha, 2010-yilda 100 ta uy xo'jaligi tasarrufida 21 ta yengil avtoulov bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2015-yilda 42 taga, 2020-yilda 49 taga yetgan.*

*Ko'rinib turibdiki, yurtdoshlarimizning avtomobil bilan ta'minlanganlik darajasi yil sayin ortib boryapti. Ekspertlarning fikricha, bu faqat aholining daromadi ko'payib, turmushi farovonlashib borayotgani, xarid qobiliyati oshayotgani bilangina izohlanmaydi. Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ya'ni avtomobilsozlik sanoati rivojlanib, avtoishqibozlar qiziqishlari inobatga olingan holda qulay va zamonaviy mashinalar ishlab chiqarilayotgani ham ana shunday ijobiy natijalarga keng yo'l ochmoqda.*

*Darhaqiqat, avtomobilsozlik mamlakatimiz iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur sohaga qaratilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan yirik investitsiyaviy loyihalar tufayli avtomobil sanoati texnologik taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Natijada yurtimiz bu yo'nalishda jahonda o'z o'rnini tobora mustahkamlayapti.*

➡ 3

**Muloqot**

## Delegatsiyamiz BRIKSning X parlament forumida qatnashdi

*Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi O'zbekiston parlamenti delegatsiyasi Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan BRIKSning X parlament forumi "Gumanitar va madaniy sohalarda parlamentlararo hamkorlik" mavzuidagi yalpi majlisida ishtirok etdi.*

Tadbirda ilm-fan, ta'lim, turizm, san'at va madaniyat, yosh parlament a'zolari bilan ishlash sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Yalpi majlisda O'zbekiston delegatsiyasi yurtimizda ta'lim, madaniyat, turizm sohalariga qaratilayotgan e'tibor, erishilayotgan yuksak natijalar haqida batafsil ma'lumot berib o'tdi.

Forum ishtirokchilari fan, ta'lim, madaniyat va turizm sohalarini rivojlantirish, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoyalash borasida o'zaro tajriba almashish masalalarini muhokama qildi.

Tadbir yakunida X parlament forumining qo'shma deklaratsiyasi qabul qilindi.

## Saylov jarayonlari va xalqaro monitoring

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi mamlakatimiz parlamenti delegatsiyasi Sankt-Peterburg shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi (MDH PA) Kengashining yig'ilishida ishtirok etdi.*

Yig'ilishda Hamdo'stlik mamlakatlaridagi saylov jarayonlarini monitoring qilishga katta e'tibor qaratildi. Xususan, Rossiya va Ozarbayjondagi prezident saylovi hamda Belarusdagi parlament saylovi monitoringida Parlamentlararo Assambleya xalqaro kuzatuvchilari faoliyati ko'rib chiqildi.

Ishtirokchilar MDH PAning siyosiy masalalar va xalqaro hamkorlik hamda mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyalarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni tingladi. Parlament a'zolari milliy delegatsiyalarning mulohazalarini inobatga olgan holda MDH Parlament Assambleyasida kuzatuvchi maqomi to'g'risidagi nizom loyihasini ham ma'qullashdi. Shuningdek, qator boshqa hujjatlar tasdiqlandi.

O'zbekiston delegatsiyasi rahbari MDH PA xalqaro kuzatuvchilarini joriy yil oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovlarni kuzatishda ishtirok etishga taklif qildi.

**"Xalq so'zi".**

**E'tirof**

## «YURTINGIZ IJTIMOIY ADOLATGA SODIQLIGINI YANA BIR BOR NAMOYISH ETDI»

*Shveysariyaning "Diva International" jurnali bosh muharriri Marit Voss "Dunyo" AA uchun intervyusida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bosh direktori Jilber Ungboning O'zbekistonga tashrifi haqida o'z fikrlarini bildirdi:*



— Yurtingiz ijtimoiy adolatga sodiqligini yana bir bor namoyish etdi. Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Jilber Ungboning mamlakatingizga tashrifi bunga misoldir.

Tashrif davomida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan samarali va konstruktiv uchrashuv o'tkazildi. XMT bosh direktori O'zbekistonning mehnatkashlar huquqlarini ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va xalqaro konvensiyalarni implementatsiya qilish borasidagi yutuqlariga yuqori baho berdi.

Bosh kotib Jilber Ungbo Toshkentda bo'lib o'tgan "Bandlik va ijtimoiy himoyani uyg'unlashtirish orqali O'zbekistonda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash" mavzuidagi xalqaro konferensiyada ham ishtirok etdi. E'tiborlisi, ushbu nufuzli konferensiyada BMT, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining yuqori martabali vakillari qatnashdi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston XMT bilan samarali hamkorlikning namunasi va mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'yicha model bo'lib xizmat qiladi.

**"Dunyo" AA.**
Jeneva

## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARIMIZ 55 TA DAVLATDA XARIDORLARIGA EGA

2024-yilning yanvar — may oylarida O'zbekiston qiymati qariyb **1,3 mlrd. AQSH dollarilik** to'qimachilik mahsulotlarini eksport qildi.

**Fakt va raqamlar**

- **Bu ko'rsatkich umumiy eksportning 11,8 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 0,5 foiz oshdi.**
- **Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari 37,6, kalava ip 46,8 foizni egalladi.**
- **2024-yilning yanvar — may oylarida dunyoning 55 ta davlatiga O'zbekistonda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari yetkazib berildi.**



*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.*

Uchrashuv

## STRATEGIYA VA DAVLAT DASTURI XUSUSIDA ATROFLICHA MA'LUMOT BERILDI

*Shu kunlarda Oliy Majlis Senati a'zolari ishtirokida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan turli uchrashuv va muloqotlar o'tkazilmoqda.*

Shunday tadbirlardan biri "O'zmilliybank" AJda tashkil etildi. Unda parlament yuqori palatasining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi E. Gadoyev hamda senator G. Ma'rufova qatnashdi.

Tadbirda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mazmun-mohiyati va unda belgilangan dolzarb vazifalar hamda 2024-yilga mo'ljallangan Davlat dasturi ijrosi holati ko'rib chiqildi. Ayni chog'da senatorlar tomonidan strategiya va Davlat dasturining ustuvor yo'nalishlari xususida atroflicha ma'lumot berildi.

Xususan, strategiyada belgilangan makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar tarkibida muammoli kreditlarni kamaytirish orqali bank tizimida moliyaviy mo'tadillikka erishish, budjet jarayonlarining shaffofligini yanada oshirish hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini kuchaytirish hamda gender tenglikni kafolatlashga oid muhim vazifalar ijrosi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga to'xtalib o'tildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida o'tkazilgan tadbirda senatorlar tomonidan Davlat dasturidagi yosh avlodning barkamol o'sishi, ta'lim-tarbiya olishi, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga doir chora-tadbirlarning aholi farovonligi, jamiyatimiz rivoji va yurtimiz taraqqiyotidagi ahamiyati yuqori ekanligi alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, keyingi yillarda xotin-qizlar va gender tenglik masalasiga katta e'tibor qaratilayotgani bois erishilayotgan natijalar e'tirof etilib, mavjud muammo hamda kamchiliklarni bartaraf etish, oliy ta'lim va ilm-fanda ayollarning ulushini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan fikr almashildi.

O'rganish

## IZCHIL HARAKATLAR TUFAYLI KAMCHILIKLAR HAL BO'LDI

*Oliy Majlis Senati a'zolari joylarda bo'lib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish, dasturlar ijrosini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida o'rganishlar o'tkazmoqda.*

Xususan, Jizzax viloyatida tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan o'tkazilgan muloqotlar chog'ida ularning faoliyatini rivojlantirishi uchun to'siq bo'layotgan omillar aniqlangan edi.

Masalan, "Jizzax" maxsus iqtisodiy zonasining tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish uchun har birining quvvati 40 MVt bo'lgan ikki transformatorli nimstansiya, shuningdek, kanalizatsiya tarmog'i qurilishini oxiriga yetkazish masalasi ko'tarilgandi.

Senat tomonidan ko'rilgan amaliy harakatlar tufayli masalaga yechim topildi.

Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanganlik holatini yaxshilash bo'yicha Vazirlar Mahkamasining maxsus farmoyishi qabul qilindi.

Unda "Jizzax" MIZning Jizzax shahar A-sanoat hududida 40 megavattlik ikki transformatorli nimstansiya, shuningdek, bitta oqova suv nasos stansiyasi, 5 km. tashqi bosimli hamda 2,4 km. ichki oqova suv tarmog'i qurilishi ko'zda tutilgan. Ayni chog'da bu borada muayyan ishlab olib borilayotir.

"Jizzax" maxsus iqtisodiy zonasi hududida suv yig'ish inshooti hamda oqova suv tarmoqlarini qurish obyekti bo'yicha joriy yil 1-iyun holatiga 7 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo'lib, ushbu ishlar uchun budjetdan yana 6,2 mlrd so'm. ajratilishi ta'minlandi.

Shuningdek, mazkur sanoat zonasida 110 kVt kuchlanishli elektr uzatish tarmog'ini va 2 ta quvvati 40 MVt bo'lgan nimstansiya qurish masalasi bo'yicha loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ekspertiza xulosalari olingan va qurilish ishlari boshlab yuborilgan.

**"Xalq so'zi".**

O'zini o'zi band qilish:

## MUAMMO VA YECHIMLAR

*Yurtimizda iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylanib ulgurgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Buni aholining turli qatlami, jumladan, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar, kichik korxonalarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qator dasturlar misolida ham ko'rish qiyin emas.*

### Mushohada

Yana bir muhim yangilik sifatida Prezidentimiz tomonidan aholining o'zini o'zi band qilish instituti, xususan, fuqarolar tomonidan ijtimoiy soliq to'lash orqali pensiya uchun zarur mehnat stajini hisobga olish tizimi joriy qilinganini keltirsa bo'ladi.

Yaqinda bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatining ellik to'rtinchi yalpi majlisida ayni shu masala chuqur tahlil qilindi va Vazirlar Mahkamasiga tegishli parlament so'rovi yuboriladigan bo'ldi.

Xo'sh, mamlakatimizda bu boradagi vaziyat qanday?

Ma'lumotga ko'ra ayni paytda shaxsiy mehnatga asoslangan va daromad olishga qaratilgan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan 100 dan ziyod faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari mavjud.

2020 — 2023-yillar davomida 2,5 milliondan ziyod fuqaro o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan. Shundan 64 foizi birgina 2023-yilda ro'yxatga olingani e'tiborga molik. Joriy yilning 6 oyi davomida esa o'zini o'zi band qilgan shaxslar yana 1,3 mln. nafarga ko'paydi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur tizim aholi orasida ommalashib borayotir. Sohalar kesimida tahlil qilsak, 45 foizi maishiy xizmat ko'rsatish, 19 foizi qishloq xo'jaligi, 14 foizi ijtimoiy yo'nalish, 10 foizi xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, 9 foizi sanoat yo'nalishi, 3 foizi axborot-kommunikatsiya yo'nalishi hissasiga to'g'ri keladi.

Aytish joizki, mazkur yo'nalishda ham muayyan xato va kamchiliklar yo'q emas. O'rganish va tahlillar hamda aholi murojaatlari ham shuni ko'rsatib turibdi.

*Birinchidan,* yo'lga qo'yilgan tizim mazmun-mohiyati, ahamiyati haqida aholi o'rtasida yetarli targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borilmagan. Bu esa o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olinganlar tomonidan ijtimoiy soliq to'lash darajasi pastligida namoyon bo'lmoqda. Masalan, 2020 — 2023-yillarda ro'yxatga olinganlarning faqat 13 foizi ijtimoiy soliq to'lovini amalga oshirgan xolos.

Shu masalani davom ettirgan holda 2023-yilda aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "ayollar daftari" hamda "yoshlar daftari"ga kiritilgan 65 mingga yaqin fuqarolarga o'zini o'zi band qilish uchun 313 mlrd. so'm subsidiya ajratilib, daromad manbai yaratilgan bo'lishiga qaramay, ularning 88 foizi ijtimoiy soliq to'lovlarini amalga oshirmagan.

Qolaversa, yetarlicha targ'ibot ishlari olib borilmagani sababli shu yil 1-may holatiga ko'ra aholi tomorqasida daromad manbaiga ega va ish bilan band bo'lgan 5,5 mln. tomorqa egalarining atigi 5,6 foizi o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tgan.

*Ikkinchidan,* o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam miqdorda soliq to'langani bois ularga tegishli yil uchun mehnat staji hisoblanmagan va to'langan summani soliq to'lovchiga qaytarish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan.

Birgina Toshkent shahridagi holat tahlil qilinganda, 2023-yili o'zini o'zi band qilgan 3 ming 663 fuqaroning 3 ming 45 nafari ijtimoiy soliq to'lamagani aniqlandi. Soliq to'laganlarning 70,7 foizi bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam miqdorda soliq to'lagani sababli ularga tegishli yil uchun mehnat staji hisoblanmagan. Bu esa fuqarolarga yoshga doir pensiyaning minimal miqdoriga ega bo'lishi va pensiya yoshiga yetganida ijtimoiy holati darajasi pasayishiga olib kelmoqda.

*Uchinchidan,* qonunchilikka muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslar ijtimoiy soliq to'lovlarini 1-dekabrga qadar amalga oshirishi lozim. Amalda mazkur sanadan keyin soliq to'lagan shaxslarga tegishli yil uchun mehnat staji hisoblanmagan.

*To'rtinchidan,* qonunga muvofiq ayollar 55 yoshga, erkaklar esa 60 yoshga to'lganida yoshga doir pensiya olish huquqi paydo bo'ladi. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish staji bo'lgan taqdirda, mavjud stajga mutanosib miqdorda tayinlanishi belgilangan.

Ma'lumki, 2022-yil 1-noyabrdan mehnatga layoqatli aholini ro'yxatga olish va hisobini yuritish joriy qilindi. Unga ko'ra soliq organlari elektron tizimida 55 yoshga to'lgan ayollar hamda 60 yoshga to'lgan erkaklar o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'ta olmaydi. Bu esa yoshga doir pensiya tayinlash uchun zarur mehnat staji yetarli bo'lmagan hollarda aynan o'zini o'zi band qilish orqali mehnat stajiga ega bo'lish imkoniyatini cheklamoqda.

*Beshinchidan,* tegishli qonunlarda o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliq miqdorini belgilash borasida ham ayrim nomuvofiqliklar bor. Xususan, Soliq kodeksining 408-moddasiga muvofiq mehnat stajini hisoblab chiqarish uchun o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ijtimoiy soliq to'lanishi lozim. "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunda esa ushbu miqdor bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan kam bo'lmasligi belgilangan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

O'ylaymizki, hukumatga yuborilgan parlament so'rovi ana shu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi.

**Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining
Xotin-qizlar va gender tenglik
masalalari
qo'mitasi raisi.**

YARIM YILLIK FAOLIYAT:

## NATIJA VA KO'RSATKICHLAR QANDAY?

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.*

*Unda dastlab qo'mitaning 2024-yil birinchi yarim yillikdagi faoliyati yakunlari ko'rib chiqildi.*

### Qonunchilik palatasida

Ta'kidlanganidek, hisobot davrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson huquqlarini muhofaza qilish kabi muhim yo'nalishlarni huquqiy jihatdan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratildi. Xususan, qo'mita qonun ijodkorligi yo'nalishida 6 ta qonun loyihasiga mas'ul bo'ldi. Ushbu qonun loyihalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan qator ishchi guruh hamda ekspertlar guruhi yig'ilishlarida qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqilib, pishiq-puxta holatga keltirildi.

Shuningdek, qonun hujjatlarining ijro etilishi holatini o'rganish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini eshitish hamda quyi palata qarori ijrosini monitoring qilishga oid 5 ta nazorat-tahlil tadbiri o'tkazildi.

Bundan tashqari, qo'mita a'zolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan jami 22 ta deputat so'rovi yuborilgan.

Hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish hamda ularni hal etishga alohida e'tibor qaratildi. Shunga ko'ra qo'mita nomiga kelgan jami 159 ta murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqildi. Ularning aksariyati ijobiy yechim topdi.

Ishtirokchilar jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalarni atroflicha muhokama qildi.

Yig'ilishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2024-yil birinchi yarim yilligidagi faoliyati, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" bandlarining bajarilishi yuzasidan axboroti eshitildi.

Shu bilan birga, Oliy Majlis palatalari Kengashining tegishli qo'shma qarori ijrosi yuzasidan Parlament tadqiqotlari instituti direktorining ma'lumoti tinglandi.

Kun tartibidagi masalalar atroflicha ko'rib chiqilib, ustuvor vazifalar belgilab olindi.

**"Xalq so'zi".**

# CHORA-TADBIRLAR SAMARADORLIGI VA QONUNIY MANFAATLAR ASOSI

*Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Qayd etish kerakki, qonun loyihalarining dastlabki tarzda fraksiyalarda muhokama qilinishi ko'plab munozarali savollarga yechim bo'lishi barobarida huquqiy hujjatlarni pishiq-puxta tayyorlashga imkon beradi. Shu bois deputatlar muhokamadagi har bir masalaning dolzarbligi, ahamiyatiga e'tibor qaratib, ularni takomillashtirishga oid muhim taklif va tavsiyalar berdi.*





### Fraksiyalarda

#### Investorlar uchun qulay sharoit va imkoniyatlar

**Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida dastlab davlatimiz rahbarining 11-12-iyul kunlari bo'lib o'tgan Farg'ona viloyatiga tashrifining ahamiyati xususida to'xtalib o'tildi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishda viloyatni sanoat hududiga aylantirish, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, san'at, madaniyat sohalarini yanada rivojlantirish, aholini uy-joy bilan ta'minlash, turmush farovonligini oshirish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratildi. Fraksiya a'zolari davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan istiqbolli loyihalarni amaliyotga tatbiq etishda yanada faollik ko'rsatish maqsadga muvofiqligini qayd etib, bu bo'yicha aniq vazifalarni belgilab oldi.

Yig'ilishda, shuningdek, bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan — maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasining muhim jihatlaridan biri — maxsus iqtisodiy zonalar hududida faoliyat yuritish istagini bildirgan investorlarga qo'shimcha qulayliklarni yaratish, ularning maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalari va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik jarayonlarini avtomatlashtirilishi sanaladi.

Qonun loyihasiga muvofiq maxsus iqtisodiy zonalarning ma'muriy kengashlari tugatilib, ularning vazifalari maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalariga hamda yagona direksiyalarga yuklatilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Muhokamada fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Jumladan, deputat Botir Mardayev loyihaning zaruratiga to'xtalib, mazkur hujjat maxsus iqtisodiy zonalarning bo'sh turgan yerlaridan samarali foydalanishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Yig'ilishda qonun loyihasi maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada soddalashtirish, investitsiyalar jalb qilish uchun sharoitlarni yaxshilash, shu asosda yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyatga egaligi inobatga olingan holda fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

#### Oilaviy zo'ravonlik — jamiyat illati

**O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida "Oilaviy (maishiy) zo'ravonliklardan himoyalash choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ma'lum qilinganidek, qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning $59^2$-moddasi va Jinoyat kodeksining $126^1$-moddasini bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qilganlik uchun javobgarlik bilan to'ldirish hamda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyat ishlari yuzasidan yarashuv to'g'risidagi arizani surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida emas, sud muhokamasi paytida berish tartibi joriy qilinmoqda. Ya'ni oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan yarashuv to'g'risidagi ariza faqat ishni sudda ko'rish jarayonida, sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkinligi belgilanyapti.

Fraksiya a'zolarining qayd etishicha, mazkur qonun loyihasi bugungi kunda hayotiy zarurat bo'lib, uning qabul qilinishi oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyat ishlarining har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bolalar va xotin-qizlarning tazyiq va zo'ravonlikka uchrashining oldini olish, bu boradagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish hamda oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni, qolaversa, xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro indekslarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yig'ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

#### Sinovdan o'tmagan usullarda tashxis qo'yish va davolash taqiqlanadi

**O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida xalq tabobatiga aloqador bo'lmagan usullarni qo'llagan holda kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunga ko'ra sog'liqni saqlash amaliyotida faqat qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llashga ruxsat etilgan profilaktika, tashxis qo'yish va davolash usullaridan, tibbiyot texnologiyalari va dori vositalaridan foydalaniladi.

Biroq amaliyotda ayrim shaxslar moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo'lish evaziga ruxsat etilmagan usullarni, shu jumladan, xalq tabobatiga aloqador bo'lmagan usullarni qo'llagan holda kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash xizmatlarini ko'rsatib, insonlarning sog'lig'i va hayotiga xavf tug'dirmoqda. Bugungi kunda milliy qonunchiligimizda ruxsat etilmagan usullarni qo'llagan holda tashxis qo'yish va davolash xizmatlari ko'rsatilganligi uchun javobgarlik choralari nazarda tutilmaganligi soxta tabiblarning noqonuniy faoliyatidan jabrlanayotgan fuqarolar soni ortishiga sabab bo'lmoqda.

Qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga va "Reklama to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish nazarda tutilyapti. Xususan, moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo'lish evaziga ruxsat etilmagan usullarni, shu jumladan, xalq tabobatiga aloqador bo'lmagan usullarni qo'llagan holda kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash xizmatlarini ko'rsatganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanishi taklif etilmoqda. Ayni chog'da ruxsat etilmagan hamda xalq tabobatiga aloqador bo'lmagan usullarni qo'llash orqali kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash xizmatlarini reklama qilish taqiqlanishi nazarda tutilyapti.

Fraksiya a'zosi Muzaffara Abdiyevaning ta'kidlashicha, zamonaviy tibbiyot ilmiy asoslangan va klinik amaliyotda o'z tasdig'ini topgan natijalarga, xalq tabobati esa uzoq yillik kuzatuv, sinov va tajriba natijalariga tayanadi. Amaliyotda ba'zan uchrab turganidek, na shifokorlarga, na tabiblarga ma'lum bo'lmagan noodatiy usullar orqali kasallikka tashxis qo'yish yoki davolash xizmatlaridan foydalangan hamyurtlarimiz aldanib, o'z kasalliklarining darajasini yanada og'irlashtirib qo'ymoqda. O'ylaymanki, ushbu qonun loyihasi sog'liqni saqlash sohasini noqonuniy faoliyat yuritayotgan shaxslar, firibgarlardan "tozalash" ga xizmat qiladi.

Yig'ilishda qonun loyihasi yuzasidan partiya pozitsiyasi shakllantirildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

#### Ombudsman faoliyatida nima o'zgarishlar kutilmoqda?

**O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig'ilishida bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan — "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ombudsman o'z oldida turgan vazifalarini moneliksiz va samarali amalga oshirishi uchun qo'shimcha kafolatlar hamda uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini ishonchli himoya qilish choralari belgilanyapti.

Shuningdek, Ombudsmanning faoliyati to'g'risidagi ma'ruza Oliy Majlis palatalarining majlislarida har yili eshitilishi nazarda tutilmoqda. Davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi holati to'g'risida Ombudsman tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis palatalariga tizimli ravishda axborot taqdim etish tartibi mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, Ombudsman tomonidan har yili 15-martga qadar Oliy Majlis palatalariga qiynoqqa solish holatlarining oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'ruza taqdim etish ko'zda tutilyapti. Ombudsmanning qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida quyi palataga kiritish huquqi belgilanmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasini muhokama qilar ekan, uning muhimligini ta'kidlab, kiritilayotgan yangi normalar Ombudsman faoliyatini yanada takomillashtirishga, uning inson huquqlari himoyasi, xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilishini alohida qayd etdi. Taklif va mulohazalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

#### Elektron onlayn-auksion orqali qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga olish mumkin

**O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** a'zolari tomonidan "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolari orqali ijaraga berish belgilanmoqda. Shuningdek, ijarachilarga ijaraga berilgan yer uchastkalari bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga, ya'ni qayta ijaraga berishga ruxsat etish nazarda tutilyapti.

Bundan tashqari, loyihada ijaraga olingan yer uchastkalari yerdan foydalanish maqsadini o'zgartirmagan holda boshqa shaxsga o'tkazishga, ya'ni ijarachilar yerlarga nisbatan o'z huquq va majburiyatlarini sotish orqali qishloq xo'jaligi yerlarini bozor aktiviga aylantirish normalari belgilanmoqda.

Fraksiya a'zosi Ravshan Begmatov belgilanayotgan normalar partiya maqsadlari va elektorati manfaatlariga mos ekanini ta'kidlab, qonun loyihasining qabul qilinishi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga berishda turli bahsli mezonlarga tayangan ochiq elektron tanlov o'rniga shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan elektron onlayn-auksion savdolari joriy etilishiga xizmat qilishini qayd etdi.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, qo'llab-quvvatlandi.

**"Xalq so'zi".**

**O'zbekistonning tuman va shahar hokimliklari vakillari Germaniyaning ilg'or tajribasi bilan yaqindan tanishdi.**

# O'ZBEKISTON MARKAZIY OSIYONING AVTOMOBIL SANOATI MARKAZIGA AYLANMOQDA



◄1

## Mintaqada yagona

Avtomobilsozlik o'zida fan va texnika taraqqiyotini mujassam etgan sanoatning yetakchi tarmoqlaridan biri sanaladi. Uni o'zlashtirish katta kuch va resurs, texnik va ilmiy salohiyat talab etadiki, shu bois hamma joyda ham bunga jahd qilinaverilmaydi. Ayni paytda dunyo mamlakatlaridan 49 tasida avtomobil ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi fikrimiz tasdig'i. O'zbekiston 1998-yilda Xalqaro avtotransport ishlab chiqaruvchilar tashkilotiga a'zo bo'lib, keyingi paytda uning avtotransport vositalari ishlab chiqaruvchi davlatlar o'rtasida nufuzi yanada oshdi.

Mutaxassislarning e'tirof etishicha, o'zbek avtomobil sanoatining yutug'i shundaki, mamlakatimizda bu sohaning barcha yo'nalishi birdek rivojlanyapti.

Chindan ham, O'zbekiston Markaziy Osiyoda yo'lovchi va tijorat transport vositalarining to'liq assortimentini ishlab chiqaruvchi yagona mamlakat hisoblanadi. Dastlab Andijon viloyati zamonaviy yengil avtomashinalari bilan dovruq qozongan bo'lsa, keyinchalik Samarqand viloyati yuk avtomobillari va avtobuslari bilan shuhrat topdi. Endilikda respublikamizning yana bir hududi avtomobil sanoati markaziga aylandi.

Gap shundaki, Jizzax viloyatida yengil tijorat avtomobillari ishlab chiqarish muvaffaqiyatli o'zlashtirildi. Bu yerda jahon bozorida xaridorgir bo'lgan "Kia", "Chery", "Haval" kabi yangi brendlar, shuningdek, ekologik toza transport vositasi — "BYD" gibrid va elektromobillari yig'ilyapti. Bu o'zbek avtomobilsozligida yangi sahifa ochilganidan dalolat berayotir.

Avtomobilsozlik sanoatning shunday samarali yo'nalishiki, bu yerda bitta ish o'rni yaratilishi metallurgiya, neft-gaz va kimyo sanoati, elektrotexnika hamda boshqa turdosh sohalarda 7-8 ta ish o'rni ochilishiga turtki bo'ladi. Ana shu multiplikativ effekt hisobga olingan holda, tarmoq korxonalari va turdosh sohalarda 200 mingdan ziyod kishilar ishlayotgani hisob-kitob qilingan. Birgina ehtiyot qismlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan mahalliy korxonalar soni 300 dan oshib ketgani (shundan 280 tasi xususiy korxona) tufayli minglab yangi ish joylari ochildi.

## Mamlakatimiz bejiz tanlanmadi

Hozirgi paytda jahon avtobozorida tendensiyalar o'zgarib, yangi energiya manbalari asosida ishlaydigan avtomobillarga qiziqish kuchaymoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki tabiiy resurslarning kamayib borayotgani, yonilg'i taqchilligi va ekologik muammolar tejamkor hamda ekologik toza transport vositalariga bo'lgan ehtiyojni oshiryapti. Mana isboti: 2022-yilda dunyoda sotilgan har o'ninchi yengil avtomobil elektromobil hissasiga to'g'ri keldi. Boshqacha aytganda, avtoishqibozlarga 10,7 millionta elektr avtomobili yetkazib berilgan. 2023-yilda esa 14,2 millionta shunday qulay ulov sotilib, avvalgi yildagiga nisbatan 33 foiz o'sishga erishildi.

Xalqaro tahlilchilarning prognozlariga ko'ra yangi avlod transportlari savdosining o'sish sur'ati 2024-yilda ham saqlanib qoladi. Bu esa dunyo avtomobilsozlarini innovatsion yechimlar izlash, ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni qo'llashni taqozo qilayotir. Ana shunday paytda O'zbekistonda "yashil" energiyada ishlovchi, zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilgani tarixiy voqelik bo'ldi.

Ahamiyatli jihati shundaki, ushbu yirik loyiha elektromobillar ishlab chiqarish sohasida jahonda yetakchi bo'lgan "BYD" kompaniyasi bilan hamkorlikda ro'yobga chiqarildi. Tabiiy savol tug'iladi: nega ishonchli hamkor sifatida aynan O'zbekiston tanlandi?



"BYD" kompaniyasi vitse-prezidenti Stella Li ushbu savolga javoban uchta muhim omilni sanab o'tdi.

*Birinchisi*, soha rivojiga bevosita davlat rahbari e'tibor qaratayotgani. Ya'ni butun dunyodan investorlarni jalb qilayotgan, mamlakatni jahonga ochayotgan va O'zbekistonni keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorlayotgan oqil Prezident bor. Bu — O'zbekiston tanlanishining eng asosiy sababi.

*Ikkinchisi*, O'zbekiston — tabiiy resurslarga boy mamlakat. Davlat rahbari tabiiy resurslardan, jumladan, quyosh, shamol energiyasidan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tishga chaqirib, mamlakatni toza, "yashil" davlatlardan biriga aylantiryapti.

*Uchinchisi*, mamlakatning yuqori texnik salohiyati va mehnatkash aholisi.

— Ochig'ini aytsam, Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida olib borayotgan sa'y-harakatlaridan hayratdaman, — deydi Stella Li xonim so'zining yakunida. — Bizning vazifamiz shunchaki ishlab chiqarish emas, bilim va tajriba ulashishdir. Shu maqsadda yurtingizga yangi avlod texnologiyalarini olib keldik. Kelgusida universitetlar ochib, korxona uchun malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish niyatidamiz.

Xitoylik mutaxassislarni yurtimizga kelishga undagan yana bir necha omillar bor. Ular ichida eng muhimlari, bu O'zbekistonda avtomobil sanoati va ta'minot tizimining mavjudligi, muhandis kadrlar yetishtirish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilganidir.

## Xorijdagi birinchi zavod

Jizzax viloyatidagi "BYD Uzbekistan Factory" qo'shma korxonasi "BYD" kompaniyasining xorijdagi elektromobillar ishlab chiqarish bo'yicha ilk keng masshtabli loyihasi hisoblanadi. E'tiborlisi, ushbu super zamonaviy zavod juda qisqa fursatda, atigi sakkiz oyda ishga tushirildi.

Buning uchun qo'shma korxona zamonaviy sanoat infratuzilmasi bilan ta'minlandi. Salkam 2 kilometr temir yo'l tortildi. Ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash uchun butlovchi qismlar ombori, 1200 ta konteyner sig'imiga ega logistika markazi qurildi.

— Biz yurtingizda avtomobilsozlik sanoati jadal sur'atlarda rivojlanayotganiga guvoh bo'ldik, — deydi "BYD" kompaniyasining Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha direktori Ivan Sao. — Bu yerda butun ishlab chiqarish zanjiri, yetkazib berish tizimi, eng asosiysi, yosh iqtidor egalari bor. Hamkorlikda yurtingiz va chet ellik mijozlarga so'nggi rusumdagi zamonaviy avtomobillar va innovatsion texnologiyalarni taqdim etish istagidamiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev biz bilan uchrashuvda asosiy e'tiborni ta'minot zanjirini yaratish, yangi avlod elektromobillari uchun to'liq mahsulot yetkazib berish masalalariga qaratdi. Ushbu yo'nalishda aniq reja va vazifalar belgilab olindi. Demak, hamjihatlikda ulkan natijalarga, albatta, erishamiz.



Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

Ta'kidlash kerakki, ushbu innovatsion zavod davlatimiz rahbarining joriy yil yanvar oyida Xitoyga amalga oshirgan tashrifi chog'ida faoliyatini boshlagan edi. Aniqrog'i, o'shanda qiymati 160 million dollarlik loyihaning birinchi bosqichiga start berildi. Oradan ko'p o'tmay zavod konveyeridan dastlabki mashinalar chiqa boshladi.

Hozirda bu yerda "Chazor" va "Song Plus Champion" modellari ishlab chiqarilmoqda.

Zavodda ishlab chiqarish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan. Robotlashtirilgan tizimlar va uskunalar yordamida yiliga 50 ming dona elektromobil yig'ish quvvati mavjud.

"BYD Uzbekistan Factory" qo'shma korxonasi bosh direktori Shafqatbek Alimovning aytishicha, kelgusi yillarda zavodda modellar qatorini kengaytirish rejalashtirilgan. Jumladan, "BYD" brendining "E2", "Seagull" va "Yuan" kabi ommabop modellarini ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda.

E'tiborlisi, O'zbekiston elektromobillarining narxi chet eldan olib kelinayotgan turdosh mashinalarga nisbatan arzon bo'ladi. Ular nafaqat ichki bozorga, balki tashqi bozorlarga ham chiqariladi. Tomonlarning kelishuviga ko'ra O'zbekistondagi zavodda tayyorlangan modellar eksport qilinganida, o'sha bozorlarga Xitoyda ishlab chiqarilgan elektromobillar olib kirilmaydi.

## Ishlab chiqarish 500 ming donaga yetkaziladi

Bugungi kunda korxonada 1 ming 200 kishi mehnat qilmoqda. Aksariyati yoshlardan iborat jamoa a'zolarining bilim va ko'nikmalarini oshirishga ustuvor ahamiyat berilyapti. Natijada o'tgan yili 200 nafar xodim "Uzautomotors" zavodlarida malaka oshirib qaytdi. Bu yil esa yana 92 nafar mutaxassis Xitoyning Sian va Chansha shaharlarida sifat nazorati, texnologiya, ta'minot, uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda malaka oshiradi.

Qo'shma korxona loyihasi uch bosqichdan iborat bo'lib, ular to'liq ishga tushirilgach, ish o'rinlari 10 mingtaga yetadi. Buning uchun ikkinchi bosqichda 300 million dollarlik investitsiya o'zlashtirilib, elektromobillar ishlab chiqarish quvvati yiliga 200 ming donaga chiqariladi. Oxirgi bosqich doirasida esa yana 500 million dollarlik sarmoya kiritilib, yiliga 500 ming dona zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarishga erishiladi.

Aytish joizki, ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan mahalliylashtirish darajasi ham bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Dastlab bamper, oyna, lok-bo'yoq, plastik qismlarni o'zimizda tayyorlash o'zlashtiriladi. Mahalliylashtirishning keyingi bosqichida esa akkumulyator, elektr dvigatel, alyuminiy qismlar, shinalar, o'rindiqlar tayyorlanadi. Bundan ko'zlangan pirovard maqsad yakuniy mahsulot tannarxini tushirishga qaratilgani diqqatga sazovor.

"BYD" kompaniyasi mamlakatimizda "yashil" transportni rivojlantirish loyihasida ham ishtirok etishi qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu qo'shma innovatsion tadqiqot markazini tashkil qilish, kadrlar tayyorlash, elektr transporti uchun texnik reglament va standartlarni ishlab chiqish hamda "Blade" avlodiga mansub batareyalar va "BYD" elektrobuslarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbari hamda hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat hamda avtomobilsozlikda raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida ko'rilayotgan sa'y-harakatlar natijasida xalqaro brendlardagi zamonaviy avtotransport vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Bularning bari O'zbekiston avtomobilsozligi yangi davr ostonasiga qadam qo'yayotganini ko'rsatib turibdi. Binobarin, hayotga tatbiq qilinayotgan yirik loyihalar rivojlanishda 10 yil oldinga o'tib, taraqqiy etgan davlatlar darajasiga yetish, Markaziy Osiyoning avtomobil sanoati markaziga aylanishiga xizmat qilmoqda.

**Said RAHMONOV**
**"Xalq so'zi".**

# BUYUK AJDODLAR MEROSI — UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

*Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy meros namunalari insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan. Ulardan bizgacha yetib kelgan ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar bugun dunyoning turli nuqtalarida, xorij to'plamlari, jamg'armalari, kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda.*

*Mamlakatimizda ana shu bebaho merosni o'rganish yuzasidan qator vazirlik va idoralar, jumladan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Markaz direktori, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori Firdavs ABDUHOLIQOV bilan suhbatimiz ham aynan shu haqda bo'ldi.*

## Bizning suhbat

***— Dastlab shu yil 3-4-iyul kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan "Buyuk ajdodlar merosi — uchinchi Renessans poydevori" respublika forumi yakunlari haqida to'xtalib o'tsangiz.***

— So'zimiz avvalida keyingi yillarda ana shunday ulug'vor va boy madaniy merosni asrab-avaylash, o'rganish va uni ommalashtirish borasidagi ishlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini alohida ta'kidlash joiz.

2017-yil 23-iyun kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bu masalada qo'yilgan eng ulug' qadamlardan biri edi. Davlatimiz rahbari poytaxtimizdagi "Hazrati Imom" majmuasi yaqinida barpo etilayotgan markaz qurilishi jarayonlari bilan tanishish maqsadida bu yerga bir necha marotaba tashrif buyurdi. O'tgan yetti yil davomida ayni masalaga yo'naltirilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Toshkentda uyushtirilgan "Buyuk ajdodlar merosi — uchinchi Renessans poydevori" respublika forumi o'tgan vaqt davomida qilingan ishlar bilan birga oldimizda turgan vazifalar sarhisobiga bag'ishlandi, deyish mumkin.

Besh yuzga yaqin sharqshunos, tarixchi, qur'onshunos va san'atshunos olimlar, tadqiqotchi hamda ekspertlarni qamrab olgan forumda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining maqsad va vazifalari, kelgusi rejalari, hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar muhokama qilindi. Ishtirokchilar ikki kun davomida o'nta shu'bada o'z ma'ruza va loyihalarini, taklif va mushohadalarini bayon etishdi.

Forumda har bir loyiha bo'yicha fikr-mulohazalar tinglandi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar tashkiliy qo'mitaga taqdim etildi. Anjuman natijalari bo'yicha deklaratsiya va "Yo'l xaritasi", shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ilmiy jamoatchilikning Murojaatnomasi qabul qilindi.

Murojaatnomada, jumladan, shunday deyiladi: "Yurtimiz tarixida birinchi marta amalga oshirilayotgan noyob megaloyiha sifatida baholanayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etish to'g'risidagi tashabbusingiz muqaddas dinimizning tinchlik, insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalarini ulug'lash, xalqimizning buyuk tarixi, boy madaniy-ma'rifiy merosini tiklash va dunyoga targ'ib etish borasidagi doimiy e'tibor va g'amxo'rligingizning yuksak amaliy namunasi sifatida, ayniqsa, tahsinga sazovordir".

Forumda olimlar markazning ilmiy-tarixiy konsepsiyasi hamda uning tarkibidagi muzey ekspozitsiyasini shakllantirishga bag'ishlangan 50 dan ortiq ma'ruzalarni tinglab, 600 ga yaqin taklif va mulohazalarini bildirdi.

***— Ular orasida eng qiziqarli, foydali deb qaysi taklif yoki mulohazalarni ayta olasiz?***

— Forumda biron-bir taklif e'tiborsiz qoldirilmadi, ularning har biri bo'yicha o'nlab ekspertlar o'z xulosalarini bildirdi. Masalan, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida innovatsion muzey tashkil qilish taklifi ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Bu haqda Prezidentimiz yaqinda o'tkazilgan uchrashuvda alohida topshiriq bergandi.

Tan olish kerak, qo'limizda Imom Buxoriy davriga oid tarixiy eksponatlar yetarli emas. Ammo bugungi innovatsiyalar, axborot texnologiyalari yordamida muzeyga tashrif buyuruvchilarni Imom Buxoriy yashagan davr va muhitga olib kirish mumkin. Bu tajribadan dunyoning qator muzeylari foydalanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia mahsulotlari davrida bunday uslub xorijlik mehmonlarni, yosh avlod vakillarini befarq qoldirmaydi. Ular maxsus "vaqt kapsulasi" yordamida bundan bir necha asr avvalgi davrga sayohat qilish barobarida, o'sha paytda yuz bergan Renessans jarayonlari, buyuk ajdodlarimiz amalga oshirgan ixtirolarga vizual tarzda guvoh bo'ladi.

Bundan tashqari, Oqsaroy, Shohi-Zinda, Registon, Go'ri Amir singari tarixiy majmualarimizda ham ana shunday audiovizual ekspozitsiyalar, 3D o'lchamidagi videokontentlarni tomoshabinlarga taqdim etish bo'yicha ham takliflar bildirildi. Mohiyatiga ko'ra dunyoda yagona bo'lgan "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" loyihasining interaktiv talqinini yaratish ham ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida tashkil qilinadigan Qur'on zali bo'yicha ham turli taklif va mulohazalar aytildi. Bu yerda islom madaniyatining nodir namunasi — "Hazrati Usmon mus'hafi" bilan birga dunyodagi eng nodir Qur'on qo'lyozmalari faksimil nusxalarini joylashtirish, zalda Qur'oni karimning muntazam jonli va audio-qiroatini tashkil etish, Qur'oni karimning nozil qilinishi, yurtimizdagi nodir mus'haf qo'lyozmalari tarixi bilan bog'liq videoroliklar namoyishi, bolalar va yoshlar uchun alohida kontentlar yaratish yuzasidan bildirilgan takliflar ham qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

***— Bu masalada faqat mahalliy olimlarning takliflari yetarli deb o'ylaysizmi yoki xorijlik mutaxassislar ham jalb qilinadimi?***

— Darhaqiqat, mahalliy va chet ellik mutaxassislarni jalb etgan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish, musulmon Renessansi davrida ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morlik rivoji to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlar berish, dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni samarali yo'lga qo'yish maqsadida UNESCO, ISESCO, IRCICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish markaz faoliyatida alohida o'rin tutadi.

Ayni paytga qadar markaz tomonidan xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan 40 dan ziyod hamkorlik memorandumlari imzolangan. O'tgan yetti yil davomida markaz tashkilotchiligi va hamkorligida 150 dan ortiq xalqaro anjuman hamda uchrashuvlar tashkil qilinib, 40 ga yaqin xorijiy delegatsiyalar tashrif buyurdi.

Yaqinda Birlashgan Arab Amirliklarining "Hidoya" ekstremizmga qarshi kurash markazi raisi, doktor Ali Roshid an-Nuaymiy boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizda bo'ldi. Delegatsiya vakillari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan qurilish va bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdi. "Hidoya" markazi raisi ikki mamlakat o'rtasida islom madaniy merosini chuqur o'rganish, muqaddas dinimizning insonparvarlik g'oyalarini keng miqyosda targ'ib etish borasida hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha o'z takliflarini bildirdi.

30-iyun kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Antoniu Guterrish mamlakatimizga tashrifi chog'ida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib, bu yerda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdi. Mamlakatimizda madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilishga qaratilayotgan e'tiborga yuqori baho berdi. BMT Bosh kotibi bugungi O'zbekiston taraqqiyoti, uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi birlashtiruvchilik roli haqida to'xtalib, Butunjahon madaniy merosini asrab-avaylashga qo'shayotgan hissasi uchun O'zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi. Dunyoda islomofobiyaning turli ko'rinishlari avj olayotgan bir paytda O'zbekiston rahbari boshchiligida katta ilmiy-ma'rifiy muassasaning barpo etilishi, islomning asl mazmun-mohiyatini ifodalashga harakat qilinishi juda ulug' ish ekanini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, o'tgan bir oyga yaqin vaqt mobaynida markazimizga TURKSOY tashkiloti raisi Sulton Rayev, IRCICA tashkilotini 16 yil boshqargan professor, doktor Xolid Eren, Fransiya Respublikasi, Saudiya Arabistoni qirolligining mamlakatimizdagi elchixonalari vakillari tashrif buyurib, markaz faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qimmatli taklif va mulohazalarini bildirishdi.

Joriy yilning avgust oyida Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tishi ko'zda tutilgan "O'zbekiston madaniy merosi — uchinchi Renessans asosi" mavzuidagi xalqaro kongress ham aynan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyatini takomillashtirish, fondini boyitish, kelgusidagi vazifalarni aniq belgilash, xalqaro hamkorlik ko'lamini yanada kengaytirishga bag'ishlanadi. Ushbu kongressda dunyoning qator muzey va kutubxonalari, madaniy-ma'rifiy markazlari mutasaddilari, yirik olimlar va mutaxassislardan markaz faoliyati, muzeylarimiz fondini boyitish, yangi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha fikrlar, takliflar, mulohazalar olinadi va kelgusida ulardan samarali foydalaniladi.

**Rustam JABBOROV**
**("Xalq so'zi") suhbatlashdi.**

## Biz va jahon

# GERMANIYADA O'ZBEK MADANIY HAMJAMIYATI TUZILDI

*Germaniyaning Myunxen shahrida vatandoshimiz Mohidilxon Jo'raboyeva tomonidan tashkil etilgan "Karavan e.V" hamjamiyatining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.*

*Tadbirda Germaniyadagi faol hamyurtlarimiz, talabalar, shuningdek, Myunxendagi migratsiya jamiyati a'zolari ishtirok etdi.*

O'zbekiston Bosh konsulxonasi diplomatlari madaniy hamjamiyatning ochilishi, shubhasiz, yurtdoshlarimiz va ularning oilalari manfaati uchun xizmat qilishini ta'kidladi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar rivojlanishiga hissa qo'shmoqchi bo'lgan vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash, yurtimizning madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini xorijda ommalashtirish davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan ustuvor vazifalardan biri ekanligi tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan alohida qayd etildi.

"Karavan e.V" hamjamiyati asoschisi Mohidilxon Jo'raboyeva marosimda so'zga chiqib, O'zbekiston Bosh konsulxonasiga yangi tashkilotning ijodiy loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashgani uchun minnatdorlik bildirdi. U, shuningdek, ishtirokchilarni hamjamiyat rejalari bilan tanishtirdi va jamiyatni qo'llab-quvvatlash hamda Germaniyada o'zbek xalqining qadriyatlarini ommalashtirishga hissa qo'shishga chaqirdi. Uning ta'kidlashicha, jamiyatda bolalar uchun "ona tili va odob-axloq darsi", "sog'lom tanda — sog'lom aql", "mohir oshpaz" va boshqa mavzularda dolzarb seminarlar, mahorat darslari o'tkaziladi.

Tadbir doirasida O'zbekistonning madaniy va gastronomik xilmaxilligini namoyish etuvchi milliy burchak, konsert dasturi, an'anaviy o'yinlar, shuningdek, bolalar qo'g'irchoq teatri spektakli namoyish qilindi.

"Karavan e.V" nemis-o'zbek madaniy hamjamiyati milliy g'oya va an'anaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlashga, ayni chog'da Germaniyadagi vatandoshlarimiz o'rtasida o'zbek tili va madaniyatini saqlashga ko'maklashuvchi loyiha hisoblanadi. Jamiyat shu yil may oyida O'zbekistonning Frankfurtdagi Bosh konsulxonasi ko'magida tashkil etilgan.

**"Dunyo" AA.**
Myunxen

**Rossiyaning Krasnoyarsk shahrida "Qovun sayli" festivali bo'lib o'tdi.**

# CIMPA DUNYO MATEMATIKLARINI XORAZMDA JAMLADI

*Bugungi kunda har bir sohada ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ularning chuqur bilimga ega bo‘lishi va tanlagan sohalarida yetuk kadrlar bo‘lib yetishishi uchun barcha shart-sharoitni yaratishga alohida e’tibor qaratilayotgani kishini xursand qiladi.*

*Shu maqsadda mamlakatimizning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, matematika sohasiga e’tibor har qachongidan kuchli. Qisqa davrda yurtimizda matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi.*

## Fan va taraqqiyot

Avvalo, ilg‘or xorijiy ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlar taklif qilinib, xalqaro ilmiy tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimi joriy etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobar oshirildi. Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajyor-tadqiqotlik instituti joriy etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi davlat universitetlari qoshida mamlakatimiz Fanlar akademiyasining V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining hududiy bo‘linmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalarini hukumat darajasida ko‘rib chiqish maqsadida Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. Hududlarda matematika va informatikaga ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlar ish boshladi. Xususan, 2021-yilda Urganch davlat universiteti huzurida ham fizika-matematika va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu maskanda hududlarning umumiy ta’lim tizimidan saralab olingan iqtidorli o‘quvchilarga VII-XI sinflar hajmida kuchaytirilgan dasturlar asosida chuqur bilim beriladi.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan muhandislik sohalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari raisligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu borada qator vazifalar belgilab berildi. Jumladan, universitetlar qoshida yosh muhandislarni tayyorlash uchun Ilg‘or muhandislik maktablarini tashkil etish topshirildi. Yangi O‘zbekistonni qurishga muhandis kadrlar kerakligi, kuchli muhandis bo‘lish uchun esa, albatta, matematikani puxta o‘rganish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari **“Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur”** degani bejiz emas. Iqtisodiyotimiz va sanoatimizni jadal rivojlantirish, birinchi navbatda, muhandis kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Yetuk muhandis-texnolog bo‘lish uchun esa matematikani puxta o‘rganish talab etiladi.

Ayni paytda yurtimizdagi barcha oliy ta’lim muassasasida turli nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun keng imoniyatlar yaratilmoqda. Urganch davlat universiteti ham ushbu sharoitlardan unumli foydalangan holda xorijiy oliy o‘quv yurtlari bilan aloqalarini tobora rivojlantirib bormoqda. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan 36 ta davlatidagi oliy ta’lim muassasalari bilan 170 dan ortiq hamkorlik memorandumlari imzolangan. Shuningdek, Erasmus+ dasturi doirasida ham jahonning 10 dan ortiq nufuzli universitetlari bilan manfaatli loyihalar yo‘lga qo‘yilgan. Ayniqsa, universitetda fizika, matematika bo‘yicha bir necha yillardan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan, dunyo matematik olimlarini qamrab olgan xalqaro darajadagi konferensiya, anjuman va turli tadbirlar universitetimiz nufuzini dunyo bo‘ylab oshirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Ana shunday nufuzli xalqaro maqomga ega tadbirlardan biri CIMPA yozgi maktabidir. Ushbu xalqaro seminarga universitetimiz joriy yil 24-iyun — 5-iyul kunlari uchinchi marta mezbonlik qildi.

CIMPA school — Xalqaro fundamental va tatbiqiy matematika markazi (Centre International de Mathematiques Pures et Appliquyes) Fransiya tashkiloti bo‘lib, asosiy maqsadi dunyoda matematikani rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat. U har yili dunyo bo‘ylab 20 tacha xalqaro matematika maktablarini tashkil etadi va moliyalashtiradi. Urganch davlat universiteti ushbu markaz bilan 2021-yildan buyon hamkorlik qiladi. Bu yil ham ikki haftalik CIMPA yozgi maktabi dunyoning o‘ndan ortiq davlatlaridan taniqli matematik olimlar va ilmiy izlanuvchilarni Al-Xorazmiy vatanida jam qildi. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Rossiyadan 10 nafar yetuk matematik olim Qozog‘iston, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Niderlandiya, Filippin, AQShdan tashrif buyurgan, shuningdek, yurtimizning Qoraqalpoq davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti hamda Urganch davlat universitetidan ishtirok etayotgan jami 60 nafardan ortiq talabalarga ma’ruza o‘qib, amaliy mashg‘ulotlar olib bordi.



Mazkur xalqaro maktab mana uch yildirki, o‘z faoliyatini ko‘rsatib kelmoqda. Bu yilgi seminarlarda asosiy ma’ruzachilar sifatida matematikaning sonlar nazariyasi sohasi yetuk namoyandalari bo‘lgan, butun dunyo bo‘yicha taniqli olimlar, xususan, Fransiyaning Nevshatel universiteti professori Elisa Lorenso Garcia, Sorbonna universiteti professori Mishel Valdshmidt, Italiyaning Roma universiteti professorlari — Franchesko Pappalardi, Laura Geatti, Amerikaning Klermont Mak-Kenna kolleji professori Lenni Fukshanskiy hamda CIMPA tashkiloti direktori Kristof Ritsentaler singari olimlar ilmiy faoliyatiga yo‘naltirilgan, ilg‘or chuqurlashtirilgan o‘quv mashg‘ulotlarini olib bordi. Bu yozgi maktabning maqsadi — yoshlarni, ayniqsa, matematika bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarni jahon miqyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga integratsiya qilish, fanning dunyo yangiliklaridan xabardor etish hisoblanadi.



Loyihaning muhim jihati shundan iboratki, u nafaqat ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishga, O‘zbekistonda matematikaning zamonaviy yo‘nalishlarini rivojlantirishga olib keladi, balki loyiha ishtirokchilari bizning boy tariximiz va madaniyatimizni ham ko‘rib, uni yaqindan o‘rganadi. Bu esa viloyatimizning turizm salohiyatini yanada oshirishga zamin yaratadi. Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida sohadagi ishlarni jadallashtirish bo‘yicha respublikamizning 11 oliy ta’lim muassasasi rektorlariga mas’ul etib belgilangan turistik obyektlarga sayyohlar oqimini kuchaytirish borasida bergan topshiriqlarining ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Fikrimiz dalili sifatida qayd etish joizki, yozgi maktab dasturida nafaqat ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berildi, balki madaniy dasturlar ham qamrab olindi. Jumladan, yozgi maktab ishtirokchilari 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deya e’tirof etilgan va butun dunyo sayyohlarini o‘ziga rom qilayotgan Xiva shahri, shuningdek, Xiva tumani, “Ichan qal’a” majmuasi hamda Bog‘ot tumanining “Qalajiq qal’a” yodgorligi bo‘ylab sayohat qilindi.

Mehmonlar “Ichan qal’a” me’moriy majmuasidagi ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar, yodgorlik va muzeylar, yangi barpo etilgan obyektlar bo‘ylab sayohat qildi va boy tariximiz haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘ldi. Ko‘hna Xorazmning o‘ziga xos osoriatiqalari, milliy madaniyatimiz va urf-odatlarimizni aks ettiruvchi buyumlar mehmonlar e’tiborini jalb qildi. Ular tarixiy, me’moriy obidalarni tomosha qilish asnosida ajdodlarimizning ulkan bunyodkorlik salohiyatini e’tirof etishdi.

Fransiyaning Nevshatel universiteti professori Elisa Lorenso Garcia o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashar ekan, jumladan, shunday deydi: ***“Asli ispaniyalikman, Fransiyadagi universitetda ishlayman. Men matematikman, turli xil tadqiqotlar qilaman. Ushbu tadqiqot maktabiga, CIMPAga bajonidil keldim. Bu yerda biz mahalliy va xalqaro talabalar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatdik. Dam olish kunlari go‘zal mamlakatingizdan zavqlanish uchun Xivaga tashrif buyurdik. Bu yerlar juda go‘zal va maftunkor. Aytish joizki, biz tadqiqot va matematika maktabiga kelishdan oldin bir hafta sayyoh sifatida O‘zbekistonni kezdik. Turli shaharlarda bo‘ldik — Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus va Orol dengizini ko‘rdik. Shuni aytishim kerakki, yurtingizda hamma narsa go‘zal, xalqingiz juda mehmondo‘st — bizni juda yaxshi kutib olishdi va albatta, Ispaniyaga qaytganimda men barchaga O‘zbekistonga kelishni tavsiya qilaman”.***

Hindistonlik talaba Tapasning fikrlari shunday:

***“Menga O‘zbekiston juda yoqdi. Bu yer juda chiroyli diyor, ayniqsa, Ichan qal’a juda ajoyib joy ekan. CIMPA maktabi dunyodagi eng zo‘r maktablardan biri hisoblanadi va bu maktab o‘z faoliyatini uzoq yillardan buyon yuritib kelmoqda. Bu maktab dunyoning turli burchaklarida matematika va ilm-fanni targ‘ib qiladi. Men CIMPA maktabi haqida juda ko‘plab do‘stlarimdan eshitgan edim va bu maktab haqiqatdan ham foydali ekan. O‘z yurtimga qaytganimdan so‘ng Hindistonda ham shunday maktablarni tashkillashtirmoqchiman. CIMPA maktabida birinchi bor ishtirok etishim va bu yerdan olgan taassurotlarim tengsiz. Sizning qadim madaniyatingizni Hindiston madaniyati bilan bog‘lab o‘rganishim mumkin, chunki bizning madaniyatimiz ham juda qadimiy. Bu zaminning insonlari nihoyatda ko‘rkam va mehribon. Milliy taomlaringiz ham juda mazali va takrorlanmas ta’mga ega. Men bu yerdagi o‘tkazgan vaqtimdan bag‘oyat xursandman va u unutilmas voqealarga boy bo‘ldi”.***

Tarixiy maskanlarimizda bo‘lgan mehmonlarning hayrati cheksiz. Ular shaharning qo‘li gul usta-hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlarga ham katta qiziqish bildirishdi. Chet ellik matematiklarga unutilmas va betakror onlarni tuhfa etgan, ularning O‘zbekiston tarixi bilan yaqindan tanishishiga, Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud, Zamaxshariy, Munis, Ogahiy, Avaz O‘tar singari vohamizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz haqidagi qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishiga xizmat qilgan azim Xiva bo‘ylab sayohat barchaga birdek manzur bo‘ldi, deb ayta olamiz.

Umuman olganda, xalqaro maktab ishtirokchilarining Xorazmga tashrifi ular xotirasida hali ko‘p yillar yashaydi. Ayniqsa, matematikaning bugungi kundagi yangiliklarini Xorazmiy vatanida o‘rganganliklari, olingan taassurotlar ularni yana tarixiy maskanga chorlab turaveradi. Ushbu xalqaro matematiklar maktabi yoshlarning ilmiy salohiyatini yanada oshirishga, olingan yangi bilim va tajribalarni amaliyotga tatbiq etish orqali O‘zbekistonda matematika sohasi ravnaqi uchun munosib hissa qo‘shish bilan birgalikda turizm sohasi yana bir pog‘ona ko‘tarilishiga, buyuk va boy tariximizni, madaniyatimizni dunyo hamjamiyatiga tanitishga yo‘l ochadi. Kelajak avlod ilmiy potensialini ro‘yobga chiqarishda o‘z samarasini beribgina qolmay, yoshlarimizning ilmiy salohiyatini jahon miqyosida namoyon qilishda va matematika sohasining xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Qolaversa, bu kabi xalqaro konferensiya va seminarlar, yozgi maktablar oliygohimizning jahon standartlari, ilm-fani sari ildam borayotganining yana bir yorqin isboti bo‘libgina qolmay turizm va ta’lim o‘rtasidagi ko‘prikni mustahkamlash, istiqbolli rejalarni amalga oshirish uchun maydon bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz. Albatta, bularning barchasi yurtimizda oliy ta’lim tizimiga qaratilgan e’tibor va yaratilayotgan keng imkoniyat hamda sharoitlar samarasidir.

**Bahrom ABDULLAYEV,**
**Urganch davlat universiteti rektori, professor.**

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLAR

## Bilim va iqtidor sinovi



*Mamlakatimizning barcha hududida 14-iyuldan oliy va professional ta’lim muassasalariga test sinovlari boshlandi.*

O‘zbekiston bo‘ylab imtihonlarni o‘tkazish va tashkil etish uchun 73 ta bino ajratilgan. Ularda 70 ming 80 abituriyent har kuni test sinovlaridan o‘tadi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi imtihonlarga kechikmaslikni, yashirin qurilma-gadjetlardan foydalanmaslikni qat’iy tayinlamoqda.

## Toshkentda Turkmanistonning madaniy va iqtisodiy salohiyati ko‘rgazmasi



*Toshkent shahrida “Made in Turkmenistan” turkman milliy mahsulotlari ko‘rgazmasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.*

Ko‘rgazmaning ochilish marosimida O‘zbekiston Bosh vazirining o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev va Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari Botir Atdayev ishtirok etdi.

Ko‘rgazma Turkmanistonning madaniy va iqtisodiy salohiyati bilan tanishish uchun noyob imkoniyatni taqdim qiladi.

## Triatlonchilarimiz Osiyoda kuchlilar safida

*Malayziyaning Kampar shahrida triatlon bo‘yicha yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo kubogi musobaqalarida yurtimiz sportchilari 2 ta medalga sazovor bo‘ldi.*

O‘zbekiston terma jamoasi a’zolaridan Diana Bektemirova o‘smirlar toifasidagi musobaqalar yakuniga ko‘ra, bronza medaliga ega chiqqan bo‘lsa, o‘smirlar toifasining aralash estafeta musobaqalarida yurtimiz sharafini himoya qilgan Diana Bektemirova, Dayana Lukiyenko, Yegor Yegorov, Muhammadyusuf Abduxalilovdan iborat to‘rtlik ham qit’a kubogining bronza medallarini qo‘lga kiritdi.

## Yangi zamonaviy bog‘cha bolajonlar ixtiyorida

*Samarqand shahrining “Shodiyona” MFYda yangi zamonaviy davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘z faoliyatini boshladi. Ushbu 300 o‘ringa mo‘ljallangan maktabgacha ta’lim maskanini bunyod etishga davlat tomonidan 13 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.*

Yangi binoda bolalar va tarbiyachilar uchun barcha sharoit yaratilgan. Jumladan, binoda mashg‘ulot xonasi va yotoqxona, mudira xonasi, hamshira xonasi, oshxona, musiqa zali mavjud. Shuningdek, MTTda yozgi ayvoncha, bolalar o‘yin maydonchasi hamda bolalar uchun cho‘milish havzasi qurilgan.

**“Xalq so‘zi”.**

**“Parij — 2024” yozgi Olimpiya o‘yinlarining boks bo‘yicha bahslarida o‘zbekistonlik referi Alisher Polvonov faoliyat olib boradi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-6788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.26 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6